

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XOJIQULOV NAIMJON RAIMOVICH

**JAMIYAT MUHITIDA O‘G‘IL BOLA TARBIYASINING ASOSIY
YO‘NALISHLARI VA O‘ZGARISHLAR TENDENSIYASI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Хожиқулов Наймжон Раймович

Jamiyat muhitida o‘g‘il bola tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari va o‘zgarishlar tendensiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil).....3

Хожикулов Наимжон Раймович

Основные направления и тенденции изменения воспитания мальчиков в общественной среде (социально-философский анализ).....25

Khojikulov Naimjon Raimovich

Main directions and trends in the upbringing of boys in the social environment (socio-philosophical analysis).....48

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XOJIQULOV NAIMJON RAIMOVICH

**JAMIYAT MUHITIDA O‘G‘IL BOLA TARBIYASINING ASOSIY
YO‘NALISHLARI VA O‘ZGARISHLAR TENDENSIYASI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4. PhD/Fal1175 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat universiteti veb-sahifasida (www.namdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kaxxorova Matlyuba Manofovna
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentalar:

Mirzaxmedov Abdirashid Mamasidikovich
falsafa fanlari doktori(DSc), professor

Xo‘jayev Mo‘minjon Isoxonovich
falsafa fanlari doktori(DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “27” dekabr soat 09:00_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi 161-uy, Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «20» dekabrda tarqatildi.

(2025-yil «____» _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi.)

B.A.Talapov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

N.M.Kodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sosiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

R.R.Zamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir.¹ Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi o'zgarishlar iqtisodiyot, siyosat, balki insonning axloqiy munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatdagi ma'naviy bo'shliqning namoyon bo'lishi o'g'il bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirish ahamiyatini dolzarblashtirmoqda. Madaniyatning deformatsiyasi o'g'il bola tarbiyasining asosiy yo'nalishlari va tendensiyalariga ta'sir etmoqda. Xususan o'g'il bola tarbiyasida tarixiy, diniy, siyosiy, ekologik, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq xususiyatlarni o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Rivojlanish tendensiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish mexanizmlarini samaradorligini oshirishda o'g'il bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani rivojida tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim omil ekanligi turli ilmiy tadqiqot markazlari va institutlari jumladan, American Educational Research Association (AQSh), Educational Research Master's in Germany, German Educational Research Schools (Germaniya), French Research Centers of Education (Fransiya), Research Institute for Higher Education (Yaponiya), Korean Educational Development Institute (Janubiy Koreya)²da o'g'il bolani tarbiyasining asosiy yo'nalishlari ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, o'g'il bola tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlarni nafaqat tarbiya fanlari doirasida balki, o'g'il bola shaxsiga nisbatan jamiyat ijtimoiy buyurtmasi va mikro muhitning mental o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda fiziologik-pedagogik, ruhiy-psixologik tadqiqotlar chorrahasida, ijtimoiy fanlar kesishmasida kompleks o'rganilishi ijtimoiy-falsafiy yondashuvni talab qilmoqda. O'g'il bola tarbiyasi va unga xos xususiyatlar, o'zgaruvchanlik jihatlari, jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy va axloqiy tamoyillari, uning ijtimoiy boshqaruv va rivojlanishdagi roli bilan bog'liq masalalardagi yondashuvlarni falsafiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bu muammoni ilmiylik ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda tarbiya bilan bog'liq masalalarga doir davlat siyosatini samarali amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilib, u bilan bog'liq har qanday muammolar tizimli tadqiq etilgan holda o'g'il bolani komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, "Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash"³ kabi maqsadni o'zida mujassamlashtirgan holda qabul qilingan

¹ Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 23 b. (416 b)

² <https://www.aera.net/Education-Research>; <https://www.mastersportal.com/study-options/268615778/educational-research-germany.html>; <https://eera-ecer.de/about-eera/membership/france-aecse>;

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ham o‘z ifodasini topgan. Bu esa bugungi kunda mamlakatimizda o‘zib kelayotgan avlodni tarbiyalashda ota-onalarning o‘zlari tayanadigan maqsadlar va qadriyatlar yo‘nalishlarini o‘rganishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-sonli, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4307-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli, 2022-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi”⁴, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamiyat muhitida o‘g‘il bola shaxsi va uning jismoniy, ma’naviy, axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar Sharq mutafakkirlarining tadqiqot doirasida fundamental muammo sifatida Konfutsiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Homid G‘azzoliy, Sa‘diy Sheroziy, Alisher Navoiy hamda jadid mutafakkirlarining⁵ asarlarida tadqiq etilgan. Xususan, Konfutsiy o‘g‘il bolani tarbiyalashning axloqiy mezonlariga, ya’ni “komil inson”, “insonparvarlik”, “burch” va “farzandlik ehtiromi”ga, Abu Rayhon Beruniy o‘g‘il bola kamolotini ta’minlashda mehnat tarbiyasining o‘rniga, Abu Nasr Forobiy esa

⁴O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022. – 43 b.

⁵ Konfutsiy. Hikmatlar / O.Jo‘raev va K.Jo‘raevlar tarjimasini. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. - 164 b.; Beruniy va ijtimoiy fanlar. / Mas‘ul muharrir I.M.Mo‘minov. – Toshkent: Fan, 1979. – 146 b.; Forobiy Abu Nasr.Fozil odamlar shahri / Tarjimolar A.Irisov va b. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.; Abu Ali ibn Sino. Men anglagan dunyo. – Toshkent: Sharq, 2015. – 272b.; Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. / F.Ravshanov she‘riy tabdili.- Toshkent: Akademnashr, 2015. – 512 b., Kaykovus. Qobusnoma. / Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b., Abu Homid G‘azzoliy Ey, Farzand / Yo‘ldosh Eshbek tarjimasini. – Toshkent: Movarounnahr, 2005. – 54 b., Sa‘diy Sheroziy. Guliston. Bo‘ston (to‘plam) / Tarj. G‘.G‘ulom, Sh.Shomuhamadov, R.Komilov, Chustiy. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2021. – 264 b., Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalblarga mahbub hikmatlar va hikoyatlar). – Toshkent: Sano-standart, 2018. – 192 b., Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 8. (96 b.)

o'g'il bolani tarbiyalashda kasb-hunar o'rgatishga, Abu Ali ibn Sino o'g'il bolada yaxshi xulqni tarbiyalashda oilaning o'rni va roliga, Yusuf Xos Hojib esa o'g'il bola tarbiyasida otaning roliga, Kaykovus o'g'il bolani aqliy jihatdan rivojlantirish masalasiga, Abu Homid G'azzoliy o'g'il bola tarbiyasida ijtimoiy odoblarni shakllantirish, Sheroziy o'g'il bolaga tarbiyani o'z vaqtida, ya'ni bolaligidan e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi ko'rsatgan bo'lsa, Alisher Navoiy o'g'il bolani ma'naviy-axloqiy jihatda shakllantirish muammosiga, Abdulla Avloniy esa tarbiyaga "hayot-mamot" masalasi sifatida e'tiborlarini qaratishgan.

G'arb faylasuf olimlaridan Suqrot, Platon, Aristotel, J.J.Russo, D.Didro, Klod Adrien Gelvesiy, I.Kant, G.Spenser, E.Dyurkgeym⁶ kabilarning qarashlarida ham jamiyatda o'g'il bolaning o'rni va uning tarbiyasi bilan bog'liq o'ziga xos masalalar o'rganilgan. Xususan, Suqrot o'g'il bolani tarbiyalashning axloqiy, estetik, jismoniy mezonini ishlab chiqqan bo'lsa, Platon esa tarbiya davlat tomonidan tashkil etilishi va hukmron guruhlarning manfaatlarini ko'zlashi lozimligini, J.J.Russo "erkin tarbiya" g'oyasini, Gelvesiy o'g'il bolalarda mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish tarbiyaning mahsuli ekanligini, D.Didro o'g'il bolalarning tabiatan individual rivojlanish imkoniyatlari va xususiyatlarini, I.Kant esa o'g'il bola tarbiyasida axloqiy burch masalasini, Gegel tarbiya falsafasida "Bildung" va inson "Men"ini shakllantirishni, G.Spenser tarbiyada ijtimoiy institutlarning rolini, E.Dyurkgeym o'g'il bolaning jamiyat muhitiga ijtimoiylashuvi jarayonlarini tadqiq etishgan.

Shuningdek jahonning yetakchi faylasuf olimlari P.L.Berj, Dj.Garbarino, R.Skinner, L.A.Tilli, Dj.Kliiz, Dj.U.Skot⁷ va boshqalar⁸ jamiyatning o'zgarib borishida oila, oiladagi o'g'il bola tarbiyasining o'ziga xosliklari va ularning kamoloti ta'minlash masalalari, oila institutining ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi, oilaviy munosabatlar madaniyatining o'zgarishi kabi masalalarni ijtimoiy-falsafiy, madaniy va biologik jihatlarini "shaxs va oila", "oil va sotsium", "jamiyat va

⁶ Фёдорова Э.Е. Ценностный аспект диалога в философии Сократа и софистов // Вестник науки и образования.- 2019. - № 5 (59). - С. 31-34., Platon. G'arb falsafasi / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 86-118., Arastu. Poetika. Axloki kabir. Ritorika. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.- 352 b., Jean-Jacques Rousseau. EMILE or ON EDUCATION (1762). <https://media.bloomsbury.com/rep/files/Primary>, Jean H.Bloch. Rousseau And Helvetius on Innate and Acquired Traits: The Final Stages of The Rousseau-Helvetius Controversy. // Journal of the History of Ideas, 1979. 40 (January-March): - Pp/ 21-41., Кант И. Сочинения в шести томах. Т. 2. / Под общ. ред. В.Ф.Асмуса. А.В.Гулыги, Т.И.Ойзермана. - М.: Мысль, 1964. – 511 с., Гегель Г. Наука логики. Соч. в 14 т., Т. VIII., - М., 1937.- С.162-163., Спенсер Г. Статьи о воспитании. – СПб., 1914, С.10-12, С.54-55., Дюркгейм Э. Педагогика и социология // Э.Дюркгейм. Социология. – М., 1995. - С. 251.

⁷ Family Relationships and Well-Being Patricia A. Thomas, PhD, Hui Liu, PhD, and Debra Umberson, PhD // Downloaded from <https://academic.oup.com/innovateage/article/1/3/igx025/4617833> by guest on 20 June 2021., Xu, M., Thomas, P. A. & Umberson D. Marital quality and cognitive limitations in late life. The Journals of Gerontology, Series B: Psychological Sciences and Social Sciences, 2016. 71, 165–176 pp. <https://doi.org/10.1093/geronb/gbv014>.

⁸ Акчурина А.А. Роль семьи в формировании личности: социально-философский анализ // Дис..кандидат философ.н. – Уфа, 2001. – С.11.; Лихачева А.Ю. Проблемы семьи и пола как объекты философской рефлексии / Диссертация ...кандидата философских наук. – Воронеж, 2002. –155 с.; Mikiyasu Nakoyama Views of a good father: ecological perspectives, PhD. – Michigan, 2007. – 137 p.; Никитина А.А. Развитие мужской идентичности на этапе перехода от подростничества к ранней взрослости/ Диссертация ...кандидата психологических наук. – Москва, 2011. –152 с.; Орлянский С.А. Трансформация образа мужчины в современной культуре/Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Ставрополь, 2004. –24 с.;

davlat” kabi ijtimoiy-madaniy munosabatlar kontekstida submadaniyatlarning amal qilish nuqtai nazari asosida tadqiq etishgan.

Mamlakatimiz faylasuf olimlaridan E.Yusupov, S.Otamuratov J.Tulenov, I.Djabborov, O.Buriev, M.Usmonov, I.Saifnazarov, Z.Qodirova va E.Karimova, X.Shayxova, R.Samarov, M.Quronov, G.Karimova⁹ va boshqalar¹⁰ tarbiya nazariyasi va o‘zbek oilasining etnomadaniy xususiyatlariga e’tibor qaratilgan holda o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda oila va uning ahamiyatining funksional jihatlariga e’tibor qaratishgan. Xususan, E.Yusupov tarbiyaning mohiyati, maqsadlari, usullari insoniyatning o‘ziga xos tarixiy, ma’naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish bilan bog‘liqligini, S.Otamuratov oilani ma’naviy an’analarini saqlashda ota-onaning roli, milliy madaniyatning davomiyligini ta’minlash, globallashtirish sharoitida oila ijtimoiy institutni muhofaza qilish masalalarini, J.Tulenov o‘g‘il bola tarbiyasida qadriyatlar tizimiga tayanishning ahamiyatli jihatlarini, I.Djabborov o‘zbek oilalarga xos bo‘lgan etnik tarbiya masalasini, I.Saifnazarov va F.Saifnazarovalar oilada o‘g‘il bolalarni an’anaviy tarzda tarbiyalash masalasini, Z.Qodirova va E.Karimovalar oiladagi sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitning saqlash masalasini, X.Shayxova oilada o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda sog‘lom turmush tarziga amal qilishning ahamiyatli jihatlarini, R.Samarov oilaviy tarbiya jarayonining transformatsiyalashuvini, M.Quronov milliy tarbiyaning metodologik jihatlarini tadqiq etishgan. Biroq jamiyat muhitida o‘g‘il bola tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari tizimli tadqiqot tarzda amalga oshirilmagan. Shu sababdan ham biz mazkur ilmiy tadqiqotimizda jamiyat muhitida o‘g‘il bola tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari va o‘zgarishlar tendensiyasini falsafiy tahlilini amalga oshirgan holda uni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Yangi O‘zbekistonda jamiyat

⁹ Yusupov E.Yu. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998. - B.184.; Otamuratov S. Oilaning milliy tarbiyani olib borishdagi o‘rni. O‘zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik muammolari. Respublika imiy-amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. - Toshkent: 2000. - B. 80-81.; Shayxova X. Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi. Saylanma. - Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 149 b.; Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 236 b.; Джаббаров И. Узбеки: (Этнокультурные традиции, быт и образ жизни). – Ташкент: Шарк, 2007. – С.31.; Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. – Toshkent: Ta’lim, 2018. - B. 254.; Qodirova Z.R., Karimova E.G. Milliy qadriyatlarni ta’lim tizimiga tadbiiq etishning psixologik asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 76; Samarov R.S. Ta’lim mazmunini belgilashning strukturaviy-funksional jihatlarini (shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim misolida) // Zamonaviy ta’lim, 12, 2015. – B. 9-14.; Quronov M. Milliy tarbiya.- Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – B. 8. (240 b.)

¹⁰ Karimova G.A. Oila ma’naviy muhiti barqarorligida ota burchi va mas’uliyati (ijtimoiy-falsafiy tahlil) / Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 54.; b.; Amirxo‘jaev Sh.Q. O‘zbek oilalarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar transformatsiyasi (XX asr oxiri - XXI asrning boshi) / Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoreferati. – Andijon, 2022. - 51 b.; Abdikarimova S.S. Zamonaviy o‘zbek oilasi etnoan’analarida transformatsiya jarayonlari / Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoreferati. – Samarqand: SamDU, 2020. – B. 46.; Salixova G.M. Oilada nogironligi bo‘lgan o‘smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish mexanizmlarini takomillashtirish (kar va zaif eshituvchi bolalar misolida) / Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 54 b.; Musurmanqulov F.U. O‘quvchilar ma’naviyatining rivojlanishida maktab, oila va mahalla hamkorligi // Zamonaviy ta’lim, №2. 2017. – B. 72-78.; Najmidinova K. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni. – Toshkent: Adolat, 2016. – B. 26.

taraqqiyotini ta'minlashning siyosiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish (2021-2024)" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Jamiyat muhitida o'g'il bola tarbiyasining asosiy yo'nalishlari va o'zgarishlar tendensiyasini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarbiya tizimining funksionallashtirishiga oid Sharq va G'arb mutafakkirlari ta'limotlarida ilgari surilgan sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik kategoriyalarining ijtimoiy-falsafiy tahlilini amalga oshirish;

oila, ta'lim, mahalla kabi ijtimoiy institutlarning o'g'il bola tarbiyasiga ta'sirini strukturaviy-funksional jihatlarini yoritish;

o'g'il bola tarbiyasiga ikki va ko'pyoqlama ta'sir kuchiga ega ijtimoiy omillar va ularni o'ziga xos xususiyat va gnoseologik jihatlarini ijtimoiy-madaniy munosabatlar kontekstida tahlil qilish;

Yangi O'zbekistonda o'g'il bola tarbiyasini takomillashtirishga doir amalga oshirilgan islohotlar va ularning institutsional asoslarini mustahkamlashga oid jamoatchilik fikrini empirik tahlilini amalga oshirish;

o'g'il bolalar tarbiyasini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi qadriyatlar tizimi va ijtimoiy omillar ta'sirini aniqlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti jamiyat muhitida o'g'il bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti o'g'il bola tarbiyasini takomillashtirishga doir tendensiyalar va qonuniyatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik, analiz va sintez, sotsiologik so'rov va qiyosiy tahlil, aksiologik, praktsiologik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'g'il bola shaxsiga xos bo'lgan jasurlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsad sari intilish, hamkorlik, liderlik kabi shaxsiy va jamoaviy fazilatlar va "o'g'il bola tarbiyasi"ning ijtimoiy-falsafiy, madaniy-biologik jihatlarini tarbiyalash ehtiyoji "shaxs va oila", "oila va jamiyat", "jamiyat va davlat" ijtimoiy-madaniy munosabatlar kontekstida ochib berilgan;

o'g'il bola tarbiyasi takomillashtirishga kvalimetrik nuqtai nazardan yondashib, umuminsoniy qadriyatlarga tayanishda adolatlilik, ijtimoiy javobgarlik kabi tamoyillarning aksiologik afzalliklari aniqlashtirilgan;

tarbiya jarayonini amalga oshirishning akmeologik, andragogik, kommunikativ paradigmalari ko'ra, o'g'il bola tarbiyasini mustahkamlashning sotsiosentrik, antroposentrik, transsendental omillari ta'lim falsafasi chorrahasida ilmiy asoslangan;

jamiyatda tarbiya tendensiyalarining taraqqiyoti va tarbiya obyekti manzilli tadqiq etilib, "o'g'il bola" shaxsiga xos jihatlar va uning tarbiyasiga ta'sir etuvchi determenantlarning gnoseologik, ontologik, aksiologik va praktsiologik omillari asosida Yangi O'zbekistonda o'g'il bola tarbiyasini tadqiq etishning nazariy modeli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan jarayon sifatida oila, ta'lim, mahalla va boshqa shu kabi ijtimoiy institutlarning o'g'il bola tarbiyasiga ta'siri yoritilgan, shuningdek o'g'il bolalarni jismoniy, ruhiy, axloqiy, kasbiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar tizimining ta'siri asoslangan;

o'g'il bolalarni mustaqillik ruhida, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash dolzarbligi inobatga olinib, tarbiya mazmunini qaytadan ko'rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash, maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo'llarini aniqlashning ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ijtimoiy fanlar kesimida aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, dalillar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusida jamiyat muhitida o'g'il bola tarbiyasining asosiy yo'nalishlari va o'zgarishlar tendensiyasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan nazariy xulosalardan Respublika Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining joylardagi bo'limlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatida, yoshlar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlari hamda ushbu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishda, shuningdek muammoga doir ta'lim tizimining yangi uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyat muhitida o'g'il bola tarbiyasining asosiy yo'nalishlari va o'zgarishlar tendensiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) mavzusidagi ilmiy tadqiqot natijalaridan:

tarbiya jarayonida jamiyat muhiti barqarorligini ta'minlovchi aksiologik, androgogik, akmeologik, kommunikativ paradigmalar aniqlanib, o'g'il bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi transsendental, sotsiosentrik va antroposentrik qadriyatlar tizimi asoslangan, o'g'il bola tarbiyasini tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy modeli takomillashtirilib, jamiyat muhitining mikro bosqichida "tarbiyaning obyektini tanlash – predmetini (tarbiya usul va shakllarini) ajratib olish – xossaviy jihatlarini inobatga olishning ilmiy metodologiyasini belgilashda mikro muhitning o'zaro bog'lovchi mahallada tarbiya faoliyatini funkcionallashuviga olib keluvchi determenantlari aniqlashtirilgan holda O'zbekiston "Milliy Tiklanish" demokratik

partiyasining faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy Tiklanish” demokratik partiyasining markaziy kengashining 2025-yil 27-yanvardagi 01/3-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur natijalarning amaliyotga tadbiiq etilishi tarbiya jarayoni samaradorligiga to’siq bo‘layotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish uchun xizmat qilgan.

“o‘gil bola tarbiyasi” va milliy tarbiyada o‘gil bolaga xos bo‘lgan mas’uliyat, maqsadga intilish, axloqiylik kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash zaruratiga oid tadqiqot yangiliklaridan O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024 va 2025-yillarda o‘tkazilgan “Assalom O‘zbekiston”, “Munosabat” targ‘ibot-tahliliy ko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 27-dekabrda 02-15-1365-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘gil bola tarbiyasiga ta’sir etuvchi sotsial omillar va O‘zbekistonda olib borilayotgan yoshlar siyosati samaradorligining joriy holati empirik jihatdan aniqlandi.

O‘gil bolalarni mustaqillik ruhida, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash dolzarbli inobatga olinib, tarbiya mazmunini qaytadan ko‘rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo‘llarini aniqlashning ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tatbiiq etilgan bo‘lib, ilmiy xulosalari, takliflari va tavsiyalari ilmiy natijalaridan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-B3-sonli “Otalarning oilaviy hayot va farzand tarbiyasidagi o‘rnini ilmiy tadqiq etish” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan. (Oila va xotin qizlar qo‘mitasi “Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti”ning 2025-yil 7-aprelda 01-09/2586-son ma’lumotnomasi) Natijada mazkur loyiha bo‘yicha tayyorlangan taklif va tavsiyalarning nazariy-metodologik va amaliy jihatdan asoslanishi, samaradorligi oshishiga xizmat qilgan.

“o‘gil bola tarbiyasi” va milliy tarbiyada o‘gil bolaga xos bo‘lgan mas’uliyat, maqsadga intilish, axloqiylik kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash zaruriyati nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalari, ilmiy natijalaridan O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari qo‘mitasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari qo‘mitasining 2025-yil 21-aprelda 02-02/1/1100-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘gil bolani tarbiyalashda axloqiylik, sadoqat, burch, mas’uliyat, e’tiqodlilik, oila, vatanga sadoqatlilik tamoyillarini singdirish va rivojlantirish bo‘yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga asos bo‘ldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamiyat muhitida o'g'il bolalarni tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida ishning asosiy natijalarini bayon qilish uchun zarur bo'ladigan asosiy ta'riflar va tushunchalar, yordamchi ma'lumotlar keltirilgan. Bu bob uchta paragrafdan tashkil topgan bo'lib, tarbiya nazariyasiga doir nazariy yondashuvlarining falsafiy talqini, sharq mutafakkirlarining o'g'il bola tarbiyasiga oid qarashlarining o'ziga xosligi, g'arb faylasuflarining o'g'il bola tarbiyasiga doir falsafiy qarashlarining kontekstli tahlillariga oid masalalari yoritilgan.

Tahlil jarayonida mavzuga oid ilmiy-nazariy, tarixiy, sotsiologik, falsafiy, ilm-fan, ta'lim, madaniyatga oid manbalar hamda yurtimizda qabul qilingan qonunlar, qarorlar, farmonlar mazmuni o'rganilgan.

Tarbiya masalasi qadimgi davrdan to shu davrga qadar insoniyat olamini qiziqtirib kelayotgan dolzarb mavzu sanaladi. Shu sabab tarbiyaga barcha davrlarda muhim va dolzarb vazifasi sifatida qaralib kelingan. Buni biz falsafiy dunyoqarashning ilk mahsuli bo'lmish xalq og'zaki ijodi namunalarida, jumladan Markaziy Osiyo xalqlarining “Alpomish”, “Kuntug'mish”, “Go'ro'g'li”, “Oysuluv”, “Tohir va Zuhra”, “Yusuf va Zulayho”, “Manas”, “Qizjibek”, “Qozi Kurpesh Bayan suluv” kabi dostonlarida o'g'il bolalarni tarbiyalash, ularni oila qurishga tayyorlash, shuningdek, kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirish masalalari ko'rsatib o'tilgan.

Zardushtiylikning kitobi “Avesto”da ham o'g'il bola tarbiyasiga oid qimmatli fikrlar bayon etilgan. B.M.Ubaydullaeva “O'zbek xalqi yosh avlod tarbiyasida o'z modeliga ega bo'lib, mazkur model asrlar davomida shakllantirilgan va uchta asosiy negiz – xalq amaliy tajribalari e'tiqodiy (zardushtiylik va islom) hamda nazariy-falsafiy (O'rta Osiyo mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalari) negizga ega”¹¹ - degan fikrni ilgari suradi. Ilmiy jamoatchilik uchun ma'lum bo'lgan “Avesto”dagi: “Ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amalnikim, bu erda va har erda ulug'lanadi va ulug'langusi, madh etaman. O'zim

¹¹ Ubaydullaeva B.M. Ўзбекларнинг бола тарбиясига доир анъаналари ва инновациялар (XX асрнинг иккинчи ярми – XXI аср бошлари). Докторлик диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2018. – Б. 28.

ham jonu dilim bilan yaxshilikka intilaman”¹² - degan falsafiy mulohazada ham o‘g‘il bola tarbiyasida niyat, so‘z va ish birligiga amal qilish muhimligi uqtilgan holda, “har bir ayol yo er o‘zi durust va yaxshi deb bilgan narsasiga amal qilishlari va boshqalarni ham ogohlantirishlari hamda ular ham o‘sha narsalarga amal qilishlari kerak”ligi¹³ ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘tmishda yashab, ijod qilgan turli mutafakkirlarining asarlarida, ilmiy tadqiqot va ilmiy izlanish natijalarida ham tarbiya nazariyasiga doir turli nuqtai nazarlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, bob doirasida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Homid G‘azzoliy, Ahmad Yassaviy, Sa‘diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning tarbiyaga doir ma‘naviy merosi tadqiq etilgan.

Tarbiya metodologiyasi doir tushunchalar, uning inson hayotida tutgan o‘rni va rolini, amaliy hayotdagi ahamiyati to‘g‘risidagi qarashlar G‘arb faylasuflari misolida o‘rganilgan. Jumladan, Suqrot, Aflotun, Arastu, Jan Jak Russo, Klod Adrien Gelvesiy, Deni Didro, Immanuil Kant kabi faylasuf olimlar fikrlari, nazariyalari va yondashuvlari kontekstli tahlil asosida ko‘rsatib o‘tildi. Tadqiqotchi A.Zaynitdinovanning yozishicha, “Qadimgi mutafakkirlar, Aflotun va Arastu o‘sib kelayotgan avlod ta‘lim-tarbiyasini davlat zimmasiga yuklagan bo‘lsa, Ibn Sino bu vazifa birinchi galda oilaga taalluqli ekanini asoslab berishga urinadi. U jahon pedagogikasi tarixida birinchilardan bo‘lib farzand tarbiyasida oqila ayol kishining salohiyatini ko‘tarish zarur ekaniga alohida e‘tibor qaratgan edi”¹⁴.

Tadqiqotda o‘g‘il bolaning jamiyatdagi o‘rni, erkaklik mohiyati va uning shakllanish jarayoni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, tarbiya nazariyasiga doir nazariy yondashuvlar, tarbiya determinantlarining falsafiy talqini tahlili amalga oshirilgan. O‘g‘il bola shaxsiyatining shakllanishida amal qiluvchi ontologik, gnoseologik, praksilogik va aksiologik omillar majmuasi sifatida tarbiya determinantlari asoslangan. Ijtimoiy-falsafiy bilish usullari asosida ularni: dialektik jihatdan - o‘zgaruvchan va bir-biri bilan bog‘liq jarayon sifatida, amaliyot asosida - tajriba va natija orqali, ijtimoiy munosabatlar kontekstida - jamiyat ta‘sirida, moddiy va ideal qadriyatlar o‘rtasidagi aloqada - inson ma‘naviyati asosida anglash imkoniyatlari aniqlangan.

Tarbiya jarayoni, uning asosiy ikki turi, ya‘ni oilaviy va ijtimoiy tarbiya o‘g‘il bola shaxsining rivojlanish bosqichlari kontekstida tahlil qilingan. Oilaviy tarbiyada ota-onalar, bobo va buvilar, umuman katta yoshli qon-qarindoshlar tomonidan, ijtimoiy tarbiyada, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko‘rsatilgan maqsadga muvofiq ma‘naviy ta‘sirning ham vertikal ham gorizonta ta‘sir kuchlari tahlil qilingan. O‘g‘il bola kamolotini ta‘minlashga doir teologik, falsafiy, psixologik, etnografik, tibbiy, huquqiy, antropologik, iqtisodiy, sotsiologik ta‘limotlar fsosida tahlillar amalga oshirilgan.

¹² Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик / Н.Жўраев; таржимон А.Махкам. – Тошкент: Ф.Ғулом, 2015. – Б. 158.

¹³ О‘sha erda. – Б. 159. (732 б.)

¹⁴ Зайнитдинова А. Ибн Сино фалсафаси <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/azizaxon-za-nitdinova-ibn-sino-falsafasi/>

Islom ta'limotiga ko'ra, "o'g'il bola Allohning insonga bergan eng ulug' ne'matlaridan sanalib, u insonning beg'ubor va e'tibor, himoya talab etadigan davri hisoblanib, unga ko'ra, bolalik davri baxt-saodat, go'zallik, orzu-havas va hayotning ajoyib olami sifatida tavsiflanadi"¹⁵. Qur'oni karimda bola ota-ona uchun cheksiz baxt-saodat manbai, ko'z quvonchi va hayot ziynati ekani "Furqon" surasining, 74-oyatida "Robbimiz, O'zing bizga jufti halollarimizdan va zurriyotlarimizdan ko'z quvonchi hadya et hamda bizlarni taqvodorlarga peshvo qil"¹⁶ deya ko'rsatib o'tilgan. Islomda shariat qonunlariga muvofiq "Bolalar balog'at yoshiga to'lmagunga qadar shariat hukmlari zimmalariga yuklanmaydi, gunohlardan pok va ma'sum hisoblanadi"¹⁷ deyilgan. Bu borada Shayx Muhammad Sodik fikricha, "Islomda farzandlarning huquqlari qat'iy rioya qilingan bo'lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklangandir. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilish majburiydir"¹⁸.

Tadqiqot ishi davomida sharq mutafakkirlarining o'g'il bola tarbiyasiga oid qarashlarining o'ziga xosligi o'rganilib, o'g'il bola tarbiyasi murakkab jarayon ekanligi, bunda albatta ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, etnik, milliy va jinsiy manfaatlar hamda ehtiyojlar nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

Tadqiqot ishida o'g'il bolani tarbiyalashning axloqiy mezonlariga asosiy e'tibor qaratilib, bunda uni "komil inson", "insonparvarlik", "burch" va "farzandlik ehtiromi" singari konseptlar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-hakoyiq", Sa'diy Sherozining "Guliston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari misolida o'rganilib, ular tomonidan o'g'il bola tarbiyasiga doir ilgari surilgan qarashlar, bayon etilgan hikmat va aforizmlar, amaliy hayotda o'z isbotni topgan yondashuvlari asosida falsafiy jihatdan ochib berildi.

Tadqiqot ishi davomida G'arb faylasuflarining o'g'il bola tarbiyasiga doir falsafiy qarashlarining kontekstli tahlili qilindi. G'arb mutafakkirlari sir-sinoatlarga boy va afsonaviy Sharqdan hamisha uzoq o'tmishda qolib ketgan insoniy o'zlikni, soxta va riyokorona iltifotlardan, har qanday g'araz va moddiy manfaatdorlikdan xoli bo'lgan oddiy insoniy munosabatlarni, ayniqsa, sammiyat va muhabbatni izlaganlar. Ular bu munosabatlarning zamirda tarbiya masalasi mujassam ekanligiga amin bo'lishgan.

Tadqiqot ishi davomida o'g'il bola tarbiyasining asosiy yo'nalishlari ko'hna Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim va tarbiyaga doir ilmiy-teologik g'oyalari o'rganildi, ularning alohida va umumiy jihatlari tahlil qilindi. Sharq mutafakkirlarining o'g'il bola tarbiyasiga qarashlarida ko'proq teotsentrik,

¹⁵ Ахмад Тавфик, Маиса Ҳамид. Исломда болалар тўғрисида ғамхўрлик. ЮНИСЕФ-Қоҳира: "Ал-Азхар" университети, 1985. — 42 б.

¹⁶ Қуръони Карим маъноларининг таржимаси / Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф . Фурқон сураси. https://islom.uz/mano_tarjima/18

¹⁷ Тўйчиева Г.У. Мовароуннаҳр маданиятида гендер тенглик тамойиллари ва амалиёти. Оилавий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги. Конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Mahalla va Oila nashriyoti, 2021. - Б. 87-93.

¹⁸ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила. – Тошкент: Hilol-Nashir, 2018.- Б. 281. (528 б.)

funksional va ratsional g'oyalar ustivor bo'lsa, G'arb mutafakkirlari qarashlarida esa har bir inson tabiatan individual rivojlanish imkoniyatlari va xususiyatlariga ega, biroq ularning namoyon bo'lishi jamiyatning ta'siri va tarbiyaga bog'liqligi ya'ni, tarbiya masalasiga institutsional yondashuv zarurligi, o'g'il bola tarbiyasida axloqiy burch masalasiga alohida e'tibor qaratib, tarbiyaga strukturaviy-funksional jihatdan yondashilganligi, tarbiya falsafasi asosida inson "Men"ini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etishi kabi jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'g'il bola kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy institutlarining falsafiy talqini**" deb nomlanib, mazkur bobda o'g'il bola tarbiyasiga ijtimoiy institutlarning ta'sirini, oila, ta'lim va mahalla institutlari misolida yoritib berilgan.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi va yoshlarga berilayotgan e'tibor mahsuli, qolaversa hozirgi davrga kelib avlodlararo almashinuvi jarayonining ta'siri hamda yangi ijtimoiy-tarixiy voqeliklar - oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyada jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Agarda oilada o'g'il bolalarni mustaqillik dunyoqarashga ega, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash oiladan boshlanishini e'tiborga olsak, oilaviy tarbiya mazmunini qaytadan ko'rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash va shu asnoda maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo'llarini aniqlash muhim ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-psixologik zaruriyat ekanligini anglash imkonini beradi. Mazkur muammolarni strukturaviy-funksional jihatdan tadqiq etishda uning murakkab va ziddiyatli ekanligini, shuningdek, unga vorisilik va tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish talab etilishini ham e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Oilada o'g'il bola kamolotini ta'minlashga doir teologik, falsafiy, psixologik, etnografik, tibbiy, huquqiy, antropologik, iqtisodiy, sotsiologik ta'limotlar yaratilgan bo'lib, u o'g'il bolani tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Mazkur yo'nalishda tadqiqotchilar tomonidan talaygina tarixiy manbalar jamlangan, empirik tadqiqotlarning xulosalari tarzida asarlar yozilgan. Milliy tarbiyaning manfaatini himoyalash maqsadida komparativ (qiyosiy-tarixiy) metod asosida ularni o'rganib, tarbiyaviy faoliyatda qo'llash mumkin. Bu o'z navbatida alohida insonning xulq namunasida, ijtimoiy guruh a'zolarining hamjihatligida ifodalanib jamiyat hayotining ma'naviy poydevori ta'minlanadi.

Tadqiqot ishi davomida kishilarning axloqsiz ishlardan nima tiyishini so'rab murojaat qilganimizda, so'rovda ishtirok etgan yoshlarning aksariyati birinchi navbatda milliy axloq-odob va ma'naviylikka tayangan oilaviy tarbiya, ikkinchidan esa, diniy tarbiya va uning asosida gunoh ishlarni qilishdan qo'rqish, deb javob qaytarganlari e'tiborga sazovordir. Bu holat tabiiydir albatta, zero, azaldan o'zbek oilalarida milliy va diniy tarbiya o'zaro uyg'unlikda olib borilgan va bu holat ajdodlarimizning yuksak ma'naviy kamolatini ta'minlagan. Bu esa o'g'il bola tarbiyasida oila institutining amaliy ahamiyatini kengroq anglash imkonini beradi.

Farzandning nazorati, o'zbek oilasida hamisha oiladagi katta yoshdagilarning zimmasida bo'lgan majburiyat hisoblanadi. Shu jihatdan oilada farzandlarni kamolot jarayonini belgilash, ularni "ommaviy madaniyat" namunalari o'zlashtirmasligini ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat shart hisoblanadi. Shu asnoda

ta'kidlash kerakki, an'anaviy o'zbek oilalarida ham otaning so'zi hal qiluvchi sanalib, bu oilalarda islomiy qadriyatlarni oilaviy hayotda yaqqol ifodalanganligini kuzatish mumkin. Ammo zamonaviy oilalarda oila a'zolarining har birining fikri alohida inobatga olinishi, ba'zida esa oilaning umumiy manfaatiga mos tushmasligi ham kuzatiladi. Bizningcha, bu tarzda munosabatlarda an'anaviydan zamonaviylikka o'tish holati kuzatilib, har bir oila a'zosining qadriyatlari inobatga olinayotganligi tahlil qilingan.

Oilaning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini o'rgangan A.A.Akchurining yozishicha, bu ko'rsatkich obro'talab ota-onalarga xos xususiyat hisoblanib, farzandlarga zug'um o'tkazish tarzida ham o'zlarining fikrlarini (gaplarini) o'tkazishga intilish ularda yaqqol ifodalangan bo'ladi¹⁹.

O'zbek oilasining bolajon ekanligini, (ayniqsa unda o'g'il bola tug'ilishi alohida e'tirof etilishini inobatga olgan holda) oilaning asosiy funksiyasi sifatida reproduktiv funksiya ustuvor ekanligini inobatga olsak, o'zbek oilasiga nisbatan madaniy baho berishda oiladagi o'g'il farzand er-xotinning barqaror ijobiy munosabati indikator sifatida belgilanadiki, zamonaviy G'arb faylasuflarining tadqiqotlarida bu etnomadaniy xususiyat alohida inobatga olinmaganligi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Ta'lim – ijtimoiy institut sifatida jamiyatning har bir sohasini tizim tarzida amal qilishi va rivojlanish dinamikasini ta'minlash bilan birga, o'g'il bolalarni ma'naviy yetuk va komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun xizmat qiluvchi borliqning bir qismidir. Negaki ta'lim, o'g'il bola tarbiyasida tizim tarzida amal qilib, bunda uning shaxs sifatida rivojlanish dinamikasini ta'minlash uchun xizmat qilishi bilan birga tarbiyaning yangi texnologiyalarini yaratish va joriy etish, takomillashtirish, ularni diagnostikasini amalga oshirish, prognoz qilish, sohaga qaratilgan tahdid, xavf va xatarlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni zararsizlantirishning usul va vositalaridan foydalanish tartibini aniqlash imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida, o'g'il bolaga ta'lim berish tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini anglash uchun uning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish lozim:

- tez o'zgaruvchan, ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi zamonaviy muhitda, o'g'il bolalarni xalqaro mehnat bozoridagi raqobatga bardoshli etib tayyorlashga;

- globallashtirish sharoitida ta'limning barcha bosqichlarida o'g'il bolalarni ijtimoiy faolligini ta'minlashga erishish;

- o'g'il bolalarni xalqaro ilmiy va madaniyatlararo munosabatlarga kirishishga, ma'naviy-ma'rifiy bag'rikenglikka bo'lgan ehtiyojini qondirishga e'tibor qaratish;

- o'g'il bolani umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga, ularning qobiliyatlari, intilishlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun xalqaro

¹⁹ Акчурина А.А. Роль семьи в формировании личности: социально-философский анализ // Дис... кандидат филос.. н. – Уфа, 2001. – С.11.

miqyosda ta'lim sohasidagi integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan qadriyatlarni yaratish jarayonini jadallashtirish;

- o'g'il bolaga ta'lim berish jarayonida ularda fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqli ochib berilgan.

Tadqiqot ishida ta'lim ijtimoiy institut sifatida o'g'il bola tarbiyasida va uning kasbiy kamolotning ta'minlashda muhim o'rin tutishi, uning funksional vazifasini boshqa birorta institut bajara olmasligi, agarda uning o'rnini boshqa institut egallashga harakat qilsa, disfunktsional holat vujudga kelishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

O'g'il bolaga ta'lim berish jarayonida quyidagi gender xususiyatlarini: o'g'il bolalarning turli xavf-xatarlarga intilishga moyilligi, iroda va ruhiyatni sinashga intilish, birinchi bo'lishni xohlashga, qahramon bo'lishga, mustaqil qaror qabul qilishga intilish, ma'lum bir masalani yechishda mantiqiylikka, obrazga va hissiy bilishga intilish, ijtimoiy faollikka va liderlikka intilish va boshqalarni inobatga olish lozim. Tadqiqotchi N.D.Sagindikova fikricha, o'g'il bolalarda mas'uliyat hissini shakllanishiga e'tibor qaratib, "jamiyatda mutaxassislariga kerak bo'ladigan xislatlar: mustaqil qaror qabul qilish va erkin harakat qila olish, xohlagan kasbiy vaziyatlarda o'z bo'yniga mas'uliyatni olishga tayyor bo'lishi, faoliyati bo'yicha jamoada maqsad qo'ya olishi, muvaffaqiyatiga erishishda optimal yo'lni tanlay olishi kerak"²⁰ deb hisoblaydi.

Tadqiqot ishida o'g'il bola kasbiy kamolotini ta'minlashda xalqaro ta'lim tajribasi erishgan yutuqlardan xususan, "stress-free schooling", ya'ni bosimdan xoli Niderlad ta'lim tajribasidan, "texnik ta'lim tizimi"ga asoslangan Singapur ta'lim tajribasidan, "International Baccalaureate" dasturi asosida ishlab chiqilgan Shveysariya ta'lim tajribasidan, "bilimlar kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun o'zlashtiriladi, imtihon uchun emas"²¹, degan qat'iy qoidaga amal qiluvchi Finlyandiya tajribasidan foydalanish bo'yicha praktsiologik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha metodologik xarakterga ega ta'lim dasturlarini yaratish maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

